

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Umumiy kimyo kafedrası

Qo'lyozma huquqida

USMONOV ABRORBЕК

**BIOKIMYO ZAVODLARIDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
MAHSULOTLAR VA ULARNI SERTIFIKATLASH**

**5140500 – kimyo ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini
olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: k.f.n.dotsent. A.Jo'rayev

Andijon – 2015 yil

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
Kirish.....	6
I. Asosiy qism	
1 Biokimyo zavodlari	8
2 Bir atomli spirtlar va karbon kislotalar haqida tushuncha.....	27
3. Etil spirt.....	28
4 Etil atsetat.....	44
5. Karbonat angidrid.....	49
6 Bojxona ekspertizasiga taqdim etiladigan sertifikat turlari.....	62
7 Alkogol mahsulotlarini sertifikatlash.....	65
III. Xulosalar.....	69
IV. Foydalanilgan adabiyotlar.....	70

SO'Z BOSHI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach o'tgan 23 yil mobaynida asrlarda bajarilishi mumkin bo'lgan ulkan ishlar amalga oshirildi. Barcha sohalarda juda katta ijobiy ishlar amalga oshirilganligi mamlakatimizni jahon miqyosidagi munosib o'rnini ko'satmoqda. Bunga xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari, xususan qishloq xo'jaligi, sport, tibbiyot, avtomobilsozlik, ilm-fan va boshqa sohalarda amalga oshirilgan ishlarni misol qilib keltirishimiz mumkin [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli ma'ruzasida yangi ming yillik arafasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida oldimizda turgan ustuvor vazifalar hamda XXI asr boshlarida mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi va uning asosiy yo'nalishlari batafsil yoritib berildi. Yurtboshimizning ma'ruzasida ta'kidlanganidek mamlakatimiz o'z taraqqiyot yo'lidan shiddat bilan ilgarilab bormoqda. Iqtisodiy islohotlarning amaliy natijasi sifatida mintaqalar sanoatida sodir bo'layotgan tarmoqlar va hududiy o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin [2].

Qisqa vaqt ichida ular o'rtasidagi tafovutlar kamaydi. Sanoat jihatidan qoloq mintaqalar iqtisodiy va eksport salohiyati sezilarli darajada oshdi. Agar 1990 yilda faqat 3ta mintaqada (Toshkent shahri, Toshkent va Farg'ona viloyatlari) O'zbekistonda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 60% dan ortig'i ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1998- yilda ularning salmog'i Andijon, Buhoro, Qashqadaryo, Xorazm, Navoiy va boshqa viloyatlarning ulushi sezilarli darajada oshishi hisobiga 38,9% ni tashkil qildi [3].

Bunday hududiy tuzilmaviy o'zgarishlar Asakada avtomobil zavodi va unga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, Buhoro neftni qayta ishlash zavodi, yangi foydali qazilma konlarining o'zlashtirilishi, qator yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarining qurilishi, foydalanilayotgan ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi tufayli sodir bo'ldi [4].

O'zbekistonda kimyo fanining rivojlanishi 1920 yilda Toshkent Davlat universitetining tashkil etilishi bilan bog'liq. O'zbekistonda kimyo fani va kimyo sanotining rivojlanishiga universitet katta hissa qo'shdi.

Shu kunlarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining kimyo yo'nalishidagi ilmiy-tekshirish institutlarida va Respublikamizdagi ko'p sonli oliy o'quv yurtlarining kimyo kafedralarida olimlar, mutaxassislar kimyo fani va sanoatining eng muhim muammolarini tadqiq qilish bilan shug'ullanmoqdalar. Respublikamiz kimyo fani rivojiga munosib hissa qo'shgan va qo'shayotgan akademiklar O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, K.S.Axmedov, M.N.Nabiev, X.U.Usmonov, M.Askarov, Z.Salimovning ilmiy ishlari xorijda ham ma'lumdir [5].

O'zbekiston hududida tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt yetarli bo'lganligidan mamlakatimiz yirik kimyo sanoatiga egadir. Xom ashyoning ko'pchiligi yetakchi kimyo sanoati korxonalarini - Fargonada sun'iy tola, Namanganda kimyo zavodi, Toshkentda lok-bo'yoq materiallari va plastmassalarni ishlab chiqaradigan korxonalarni vujudga keltirish imkonini yaratdi. Ro'zg'or kimyosi mahsulotlarini tayyorlaydigan Toshkent sintetik yuvish vositalari zavodi, Olmaliq ro'zg'or kimyosi zavodi, Jizzah plastmassa zavodi ishlab turibdi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligining paxtachilik tarmog'i kimyo sanoatining mahsulotlarini eng ko'p ishlatuvchi tarmoq hisoblanadi. Mamlakatimizning qishloq xo'jaligida har yili million tonnalab mineral o'g'itlar, gerbitsidlar, insektitsidlar, fungitsidlar, rodentitsidlar, o'stiruvch moddalar, defoliantlar, desikantlar va boshqa xil mahsulotlar ishlatiladi. Hozirgi vaqtda respublikamizda Chirchik elektr kimyo kombinati, Olmaliq kimyo zavodi, Samarqand kimyo zavodi, Navoiy azotli o'g'itlar kombinati, Navoiy elektr kimyo kombinati, Fargona azotli o'g'itlar zavodida turli mineral o'g'itlar, o'simliklar zararkunandalariga qarshi zaharli moddalar, defoliantlar tayyorlanmoqda. Shuningdek, respublikamizda 3 ta gidroliz zavodi, tog-metallurgiya kombinatlari,

sintetik tolalar tayyorlaydigan zavodlar, chinni, sement zavodlari va boshqa xil kimyo zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamiz hududida kimyo sanoatining tez rivojlanishi, qo'llanayotgan texnologik qurilmaning mukammal emasligi ekologik jihatdan salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Kimyo va boshqa xil korxonalardan ajralib havoga, suvga yoki tuproqqa qo'shilib yuborilayotgan turli chikindilar atrof-muhitni ifloslantirib bormoqda. Buning oldinini olish tez orada kechiktirmay hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O'zbekistonda joylashgan barcha kimyo korxonalarini yaqin yillar ichida chiqindisiz texnologiya asosida ishlashga moslashtirish lozimdir. Bu vazifani hal qilish, ya'ni yuksak malakali kimyogarlar tabiatshunoslar, muhandislarni tayyorlash respublikamizning oliy o'quv yurtlari zimmasiga yo'qlanadi.

Qayd etilsinki, alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish tizimida tarmoqning barqaror rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayapti. Alkogolli mahsulotlar ham, etil spirti ham bir vaqtda ishlab chiqarilgani sababli ularni hisobga olishda buzib ko'rsatish hollariga yo'l qo'yilgan.

Amaldagi litsenziya majburiyatlari mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, uni tashqi bozorga chiqarishni ta'minlamayapti.

Ko'rilayotgan choralarga qaramay, alkogolli mahsulotlarni chetdan nolegal (yashirincha) keltirish va ishlab chiqarish, ularni ichki bozorda, ayrim hollarda esa yuqori sifatli qalbaki aksiz markalar bilan sotish holatlari hamon uchrab turibdi.

Alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish samaradorligini yanada oshirish, sifatsiz va kontrabanda yo'li bilan olib kelinadigan alkogolli mahsulotlar noqonuniy ishlab chiqarilishi va sotilishiga yo'l qo'ymaslik ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek tarmoqni boshqarishni takomillashtirishga doir tavsiyalar maskur bitiruv malakaviy ishda o'z aksini topgan [6].

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ularni sertifikatlash, ularni kimyoviy tarkibini o'rganish muhim ilmiy vazifani bajarishda o'ziga xos o'rni bor. Biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni xalq xo'jaligida, tibbiyotda, hayotiy jarayonlarni talab darajasida borishini ta'minlash, ularda sodir bo'ladigan turli o'zgarishlarni oldini olishga qaratilgan. Shu bilan birga, biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar etil spirt, etil asetat, karbonat angidridlarni kimyoviy tuzilishini aniqlash, ularni tuzilishiga ko'ra sinflash va sertifikatlash ishlarini amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tanlangan bitiruv malakaviy ish mavzusi bo'yicha ko'plab kimyogar va biolog olimlar ish olib borishgan. Biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ularni sertifikatlashni o'rganish ishlari yetarlicha bo'lmaganligi sababli biz bitiruv malakaviy ish mavzusini "Biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ularni sertifikatlash" deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ularni sertifikatlashni o'rganish

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari.

1. Tanlangan bitiruv malakaviy ish yuzasidan ilmiy manbalarni ARM va Internet manzillaridan izlash va ularni tahlil etish;
2. Tahlillar asosida biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ularni sertifikatlashni o'rganish;
3. Olingan natijalarga ko'ra tegishli xulosalarga kelish.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi. Biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sertifikatlashga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ish so'z boshi, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning xajmi 71 bet, 5 ta jadval va 2 ta rasmni o'z ichiga oladi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining, kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishdan ko'zlangan maqsad, mavzuning o'rganilish darajasi, ishning vazifalari, yangiligi haqida ma'lumotlar berilgan. Ishning asosiy qismida biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan maxsulotlarni tabiatda tarqalishi, fizik-kimyovy xossalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ishda biokimyo zavodlarida ishlab chiqariladigan karbonat angidrid, etilatsetat, karbon kislotalar hamda bojxona ekspertizasiga taqdim etiladigan sertifikat turlari bilan yaqindan tanishildi. Xulosa qismida bitiruv malakaviy ish bo'yicha yakuniy xulosalarga kelingan. Foydalanilgan adabiyotlar qismida 27 ta adabiyotlardan foydalanildi.

I.ASOSIY QISM

I.2.Biokimyo zavodlari

Andijon biokimyo zavodi - yirik kimyo sanoati korxonasi. Andijon shaxrida joylashgan. "O'zkiyosanoat" uyushmasi tarkibiga kiradi. Dondan rektifikatsiyalangan oziq-ovqat (etil) spirti ishlab chiqaradi. Respublikadagi oziq-ovqat, tibbiyot, atir-upa va boshqa sanoat tarmoqlarini spirt bilan ta'minlaydi. Korxona 1953 yilda Andijon gidroliz zavodi sifatida tashkil etilgan va chigit shulxasi, sholi qobig'idan texnik etil spirti, ozuqa achitqilari, ksilit, nitrolignin va boshqa mahsulotlar ishlab chiqardi. 90-yillar boshidan atrof muhitga salbiy ta'sirini hisobga olib zavodning ishlab chiqarish yo'nalishini o'zgartirish ishlari boshlandi va 1994 yildan gidroliz sanoati ishlab chiqarish quvvatlari to'xtatildi. 1991—1994 yillarda etil spirti ishlab chiqarish quvvatlari qurilib, korxonaning 1-navbati 1994 yilda ishga tushirildi (loyiha quvvati yiliga 915 ming dal etil spirti). 1995 yil sentdan korxonaning (yillik loyiha quvvati 877 ming dal bo'lgan) 2-navbati qurilishi boshlandi va 1999 yilda ishga tushirildi.

Vino-arq sanoati – oziq-ovqat sanoatining tarmog'i. Bu tarmoqda uzum va meva hamda rezavor mevalar vinosi, sharbati, shampän vinosi, konyak, etil spirtidan tayyorlangan og'tkir ichimliklar, har xil araq turlari, likyor-arq mahsulotlari (likyorlar, balzamlar va b.) ishlab chiqariladi [7].

Uzumchilik va vinochilik tarixida vino Yunoniston, Finikiya va boshqa joylarda miloddan avvalgi V asrdan boshlab tayyorlangani haqida ma'lumot bor. Uning tarixi Sharqda ham mana shu davrlarga, hatto undan ham uzoqqa borib taqaladi. Yunon tarixchisi Gerodot "Tarix" asari 1-kitobining 204—216 boblarida massaget qabilalari uyushmasining hukmdori To'maris haqida hikoya qilar ekan, Eron shohi Kir II To'marisning mardligiga hiyla bilan javob berganini — uning og'li Spargapisesni qog'shini bilan sharob ichirib asir olganligini yozadi.

Og'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu yerda ham qadimdan uzum sharbatidan shifobaxsh va xush kayfiyat bagg'ishlovchi ichimliklar tayyorlanib iste'mol qilinganligini kog'rsatadi. Dastlabki paytlarda

musallas xonaki usulda tayyorlangan. Keyinchalik kog'proq sharbat olish maqsadida maxsus qurilma ixtiro qilingan. Oqqorg'on tumanidagi Hanqa harobalaridan uzum sharbatini siqib chiqarishga mo'ljallangan moslama — tarapan (tosh taxta) topilgan. Tosh taxtadan katta aylananing ichiga savatda yoki qopda uzum boshlari qog'yilgan. Sog'ng ular ustiga og'ir tosh bosilgan. Yuk og'irlashgan sayin uzum sharbatini ham kog'payib, toshga o'yilgan ariqchalar orqali kichik aylanaga oqib o'tgan. Bu yerda sharbat tindirilib, tozalaniib xumlarga yoki boshqa idishlarga oqizilgan. Ba'zan uzum boshlari og'ir tosh yordamida emas, balki yog'och dastak vositasida ezg'ilanib, sharbatini siqib chiqarilgan. Ba'zi joylardan topilgan sharob ichiladigan idishlar sirtiga bu ichimlikni tayyorlash jarayonlari tasvirlangan suratlar ishlangan. Suratlarda press-tarapan, uzumni ezg'ilayotgan odamlar, tol chiviqlaridan yasalgan savat-qoplar aks ettirilgan. Xonadonlarda uzumdan musallas (may, sharob, chog'ir), sirka, g'alla donidan bo'za kabi ichimliklar tayyorlangan. Ammo islom dini mast qiluvchi ichimliklar iste'mol etishni taqiqlagani sababli bu hunarlar keng yoyilmay, an'anaviy tarzda davom etib kelgan [8].

I.1 Bir atomli spirtlar va karbon kislotalar xaqida tushuncha

To'yingan bir atomli spirtlarning umumiy formulasini $C_nH_{2n+1}OH$ yoki $R-OH$ bilan ifodalash mumkin. Gidroksil guruhining qanday uglevodorod atomi bilan bog'langanligiga qarab ular birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirtlarga bo'linadilar.

Spirtlarning izomeriyasi va nomlanishi. Spirtlarning izomeriyasi uglevodorod zanjirining tuzilishiga va gidroksil guruhining zanjirdagi joylashuv holatiga bog'liq bo'ladi.

Emperik nomenklaturaga asosan, spirtlarning nomi gidroksil guruh bilan bog'langan uglevodorod radikalining oxiriga spirt so'zi qo'shib hosil qilinadi.

Ratsional nomenklatura bo'yicha esa metil spirti karbinol deb ataladi, qolgan radikallar uning hosilasi deb qaraladi.

Sistematik nomenklatura bo'yicha spirtlarni nomlashda ularning nomi tegishli to'yingan uglevodorod nomi oxiriga –ol qo'shimchasi qo'shib hosil qilinadi. Gidroksil guruhi va radikallarning holati raqamlar bilan ko'rsatiladi.


1-jadval

Spirtlarning nomlanishi


Spirtlarning formulasi	Empirik nomenklatura bo'yicha nomi	Ratsional nomenklatura bo'yicha nomi	Sistematik nomenklatura bo'yicha nomi
CH_3OH	Metil spirt	Karbinol	Metanol
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{OH}$	Etil spirt	Metil karbinol	Etanol
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$	Birlamchi propil spirti	Etil karbinol	1-propanol
$\begin{array}{c} \text{H} \\ \\ \text{H}_3\text{C}-\text{C}-\text{CH}_3 \\ \\ \text{OH} \end{array}$	Ikkalamchi propil spirti	Dimetil karbinol	2-propanol
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH}$	Birlamchi butil spirti	Propil karbinol	1-butanol
$\begin{array}{c} \text{H}_2 \quad \text{H} \\ \quad \\ \text{H}_3\text{C}-\text{C}-\text{C}-\text{CH}_3 \\ \\ \text{OH} \end{array}$	Ikkalamchi butil spirti	Metiletil karbinol	2-butanol
$\begin{array}{c} \text{CH}_3 \\ \\ \text{H}_3\text{C}-\text{C}-\text{CH}_3 \\ \\ \text{OH} \end{array}$	Uchlamchi butil spirit	Trimetil karbinol	2-metil-propanol-2
$\begin{array}{c} \text{H} \\ \\ \text{H}_3\text{C}-\text{C}-\text{CH}_2\text{OH} \\ \\ \text{CH}_3 \end{array}$	Izobutil spirti	Izopropil karbinol	2-metil-propanol-1

Olinish usullari. Spirtlar olishning bir necha usullari ma'lum. Quyida shulardan ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.


Spirtlarni galoid alkilarni suv yoki ishqorning suvli eritmasi bilan qo'shib qizdirish orqali olish mumkin:



Etilen uglevodorodlariga katalizatorlar ishtirokida suv biriktirilganda bir atomli spirtlar hosil bo'ladi. Katalizator sifatida asosan konsentrlangan sulfat kislotadan foydalaniladi. Etilen uglevodorodlariga suvning birikish quyidagi bosqichlar orqali sodir bo'ladi:




Spirtlarni aldegid va ketonlarni katalizator ishtirokida qaytarish orqali yoki ularga magniy organik birikmalar biriktirish orqali olish mumkin:



Bu jarayon mis, kobalt, nikel, platina, palladiy katalizatorligida 300-500°C haroratda olib boriladi.


Karbonil guruhi kuchli qutblangan bo'lganligi uchun ularga nukleofil agentlar oson birika oladi:

Hosil bo'lgan oraliq modda suv ishtirokida juda oson parchalanadi:



Bu usul bilan spirtlarni tuzilishini oldindan belgilangan holda sintez qilish mumkin.

Sanoatda etil spirtini pentazan saqllovchi tabiiy birikmalar – uglevodlarni fermentlar ishtirokida bijg'itish orqali olinadi. Masalan:



Bijg'itishni 4 % li sulfat kislota ishtirokida ham olib borish mumkin. Shu usul bilan g'o'zapoya, yog'och chiqindilari, oziq-ovqat chiqindilari va boshqalardan ko'p miqdorda etil spirti ishlab chiqariladi [9].


Metil spirti sanoatda CO va H₂ dan sintez qilinadi:



Bu jarayon 200-300 atm bosim, 400°C harorat va rux-xrom-mis katalizatori ishtirokida olib boriladi. Spirtlarni yuqorida ko'rsatilgan usullarda tashqari, yana murakkab efirlardan atsetallardan va boshqa birikmalardan olish mumkin.

Spirtlarning fizik xossalari. Spirtlarning C₁₀ gacha bo'lganlari suyuqlik va undan yuqorilari qattiq moddalardir. Dastlabki vakillari suv bilan istalgan nisbatta aralashadi. O'ziga xos xidga ega. Ularning molekulyar massalari ortib borishi bilan suvda eruvchanligi kamayib hidi yoqimsiz bo'lib boradi, qaynash harorati ham ortib boradi. Normal tuzilishga ega bo'lgan spirtlar izomerlariga qaraganda yuqori haroratda qaynaydilar.

Spirtlar vodorod bog'lanishi hosil qiladiganligi sababli yuqori haroratda qaynaydilar:




Spirtlar orasida metil spirti o'ta zaharli hisoblanadi, uning 10 ml inson ko'rish qobiliyatini yo'qotishiga, 30 ml esa o'limiga sabab bo'ladi [10].

To'yingan bir atomli spirtlarning fizik xossalari


Spirtlarning kimyoviy xossalari. Bir atomli spirtlar kimyoviy jihatdan nisbatan faol birikmalar bo'lib, ular OH – guruhdagi vodorod atomi, hamda OH - guruh bog'langan uglevodoroddagi vodorodlar hisobidan kimyoviy jarayonlarga kirisha oladilar.

Bir atomli spirtlar neytral xarakterga egadirlar. Ammo ular juda kam darajada amfoterlik hususiyatini namoyon qiladilar.

Ularga ishqoriy metallar bilan ta'sir etilganda gidroksil guruhining vodorodi metall bilan almashadi va alkogolyatlarni hosil qiladi:




suv bilan ta'sir etilganda ular oson parchalanadilar:




Spirtlar menarel kislotalar bilan o'zaro ta'sir eta oladilar. Bunda oraliq modda sifatida oksoniy birikmalari hosil bo'ladi:



Bu birikmalar qizdirilganda galoid alkil va suvga parchalanadilar:




Spirtlar kislorodli menarel kislotalar shuningdek organik kislotalar bilan efir hosil qilish (eterefikatsiya) jarayonlariga kirisha oladilar:



Dimetilsulfat $(\text{CH}_3)_2\text{SO}_4$ kuchli metillovchi agent, ammo u o'ta zaharli bo'lganligi uchun kam ishlatiladi.


Spiirtalar bilan organik karbon kislotalar orasida boruvchi jarayonning ahamiyati g'oyat kattadir. Chunki bu jarayon natijasida hosil bo'ladigan birikmalar oziq-ovqat sanoatida. Plastmassalar olishda, erituvchi sifatida va boshqa sohalarda keng ko'lamda ishlatiladi.



Bu jarayon qayta xarakterga ega bo'lib, muvozanat kislota katalizatorligida o'ngga, ishqor (asos) katalizatorligida esa chapga siljiydi. Chapga boruvchi jarayonni sovunlanish deyiladi, chunki bu jarayon natijasida sovun (va unga o'xshash moddalar) hosil bo'ladi.


Spiirtlardan suvning ajralish jarayoni (degidrotatsiya) ikki xil yo'nalishda sodir bo'lishi mumkin: jarayon suvni tortib oluvchi vositalar sulfat, ortafosfat kislotalar, alyuminiy oksidli va boshqalar ishtirokida boradi. Suv bir molekula spirtidan (ichki molekulyar degidratlanish) yoki har xil molekula spirtidan ajralib chiqishi mumkin.

Suv har xil spirtidan ajralib chiqqanda oxirgi mahsulot sifatida oddiy efir hosil bo'ladi:



Suv bir molekula spirtidan ajralib chiqqanda oxirgi mahsulot sifatida to'yinmagan uglevodorod hosil bo'ladi. Spiirtlardan suvning ajralib chiqishi Zaysev qoidasiga muvofiq borib, bunda vodorod eng kam vodorod tutgan uglerod atomidan ajralib chiqadi.


Shunga muvofiq spiirtlardan suvning ajralib chiqish tezligi quyidagi tartib o'zgaradi:



Spirtlarga galoid vodorod kislotalar, fosforning, oltingugurtlarning galogenli hosilalari bilan ta'sir etilganda ulardagi gidroksil guruhi galogenga almashinadi:



Bu jarayon uchlamchi spirtlarda juda osonlik bilan boradi, jarayon ye₁-mexanizmiga mos keladi:



Spirtlardagi gidroksil guruhni RCl₅ yoki RCl₃ ta'sirida xlorga almashtirish jarayoni quyidagi sxema bo'yicha boradi:




Spirtlardagi gidroksil guruhni xlorga almashtirishda eng qulay ta'sir etuvchi vosita tionilxlorid hisoblanadi:




Bunda hosil bo'ladigan SO₂ va HCl gaz holida ajralib chiqadi, kerakli mahsulot R-Cl juda osonlik bilan tozalanadi[11].

Spirtlarning oksidlanishi. Birlamchi spirtlarning katalizatorlar (mis birikmalari) ishtirokida 300-500⁰C da oksidlanishi yoki ulardan 100-180⁰S da mis, kumush, nikel, platina kabi katalizatorlar ishtirokida vodorodning tortib olish natijasida aldegid, ikkilamchi spirtlardan esa ketonlar hosil bo'ladi:



Spirtlarning oksidlanish jarayoni murakkab bo'lib, buning natijasida oksidlanish olib borilayotgan sharoitga qarab oxirgi mahsulot sifatida turli mahsulotlar hosil bo'lishi mumkin.

Spirtlardagi gidroksil guruhining vodorodini aniqlashda Chuguye-Serevitsina-Terentev usulida foydalaniladi. Bunda spirtlarga magniy organik birikmalar ta'sir ettilganda -OH -guruh vodorodi magniy galogenga almashinadi va uglevodorod ajralib chiqadi:



Ajralib chiqayotgan uglevodorod miqdoriga qarab spirtni aralashmadagi miqdori aniqlanadi.

Ayrim vakillari va ularni ishlatilishi. Spirtlar orasida metil va etil spirtlarning ahamiyati kattadir. Metil spirti 54°C da qaynaydigan suyuqlik, o'ta zaharli. Sanoatda CO va H_2 dan sintez qilinadi.

Metil spirti asosan chumoli aldegidni ishlab chiqarishda, erituvchi sifatida, turli molekulalar tarkibiga metil guruhini kiritishda, metil-, dimetil- va trimetilamin olishda ishlatiladi.

Etil spirti $78,4^\circ\text{C}$ qaynaydi. Sanoatda asosan etilendan va pentozan saqllovchi birikmalardan olinadi. U erituvchi sifatida butadiyen-1,3 olishda va oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi.

Propil-, izopropil-, butil spirtlar sirt aktiv birikmalar olishda, aldegid va ketonlar, murakkab efirlar olishda ishlatiladi.

Tuzilishida karboksil guruhi bo'lgan organik birikmalarga karbon kislotalar deyiladi.

Karboksil guruhining soniga qarab ular bir va ko'p asosli kislotalarga bo'linadilar. Karboksil guruhi to'yingan uglevodorod qoldig'i bilan bog'langan bo'lsa to'yingan kislotalar, agar karboksil guruhi to'yinmagan uglevodorod qoldig'i bilan bog'langan bo'lsa to'yinmagan kislotalar deyiladi.

To'yingan bir asosli karbon kislotalar. To'yingan bir asosli karbon kislotalar $\text{C}_n\text{H}_{2n+1}\text{COOH}$ yoki R-COOH umumiy formulalar bilan ifodalanadi. R-COOH formulada $\text{R}=\text{H}$: - CH_3 ; - C_2H_5 va boshqa radikallar bo'lishi mumkin.

Izomeriyasi va nomlanishi. Karbon kislotalarning gomologik qatori chumoli kislota H-COOH dan boshlanadi.

Ularning dastlabki 3 vakilini izomerlari yo'q. To'rtinchi vakilidan boshlab izomeriya hodisasi kuzatiladi.

Kislotalarni sistematik nomenklatura bo'yicha nomlashda tegishli to'yingan uglevodorod nomi oxiriga kislota so'zi qo'shib o'qiladi. Quyida to'yingan bir asosli karbon kislotalarni empirik va sistematik nomenklaturada nomlashga misol keltiramiz:

2-jadval

To'yingan bir asosli karbon kislotalarning izomeriyasi va nomenklaturasi

Kislotaning tuzilishi	Empirik (tasodifiy) nomenklatura bo'yicha nomi	Sistematik nomenklatura bo'yicha nomi
$\text{H} - \text{COOH}$	CHumoli kislota	Metan kislota
$\text{CH}_3 - \text{COOH}$	Sirka kislota	Etil kislota
$\text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{COOH}$	Propion kislota	Propan kislota
$\text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{COOH}$	Moy kislota	Butan kislota
$\begin{array}{c} \text{CH}_3 - \text{CH} - \text{COOH} \\ \\ \text{CH}_3 \end{array}$	Izomoy kislota	2-metil propan kislota
$\text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{CH}_3 - \text{COOH}$	Valerian kislota	Pental kislota
$\begin{array}{c} \text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{CH} - \text{COOH} \\ \\ \text{CH}_3 \end{array}$	Metiletil sirka kislota	2-metil butan kislota
$\begin{array}{c} \text{CH}_3 - \text{CH} - \text{CH}_2 - \text{COOH} \\ \\ \text{CH}_3 \end{array}$	Izovalerian kislota	3-metil butan kislota

Keng tarqalgan ayrim kislotalar quyidagicha nomlanadi:

$\text{CH}_3 - (\text{CH}_2)_4 - \text{COOH}$ kapron kislota

$\text{CH}_3 - (\text{CH}_2)_5 - \text{COOH}$ enant kislota



$\text{CH}_3 - (\text{CH}_2)_{10} - \text{COOH}$	laurin kislota
$\text{CH}_3 - (\text{CH}_2)_{14} - \text{COOH}$	palmetin kislota
$\text{CH}_3 - (\text{CH}_2)_{16} - \text{COOH}$	stearin kislota

Kislota qoltiqlari quyidagicha nomlanadi (ularni umumiy nomda atsillar deyiladi):

$\text{H}-\text{C} \begin{smallmatrix} \nearrow \text{O} \\ \searrow \end{smallmatrix}$	formil, metanoil
$\text{CH}_3-\text{C} \begin{smallmatrix} \nearrow \text{O} \\ \searrow \end{smallmatrix}$	atsetil, etanoli
$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{C} \begin{smallmatrix} \nearrow \text{O} \\ \searrow \end{smallmatrix}$	propionil, propanoil
$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{C} \begin{smallmatrix} \nearrow \text{O} \\ \searrow \end{smallmatrix}$	butiril, butanoli

Kislotalarning olinish usullari. Kislotalar olishning bir necha usullari ma'lum. Ulardan ayrimlarini biz oldingi bo'limlarda ko'rib chiqqanmiz. Kislotalarni:


1. Birlamchi spirtlarni oksidlab,
2. Aldegidlarni oksidlab,
3. Metallorganik birikmalardan olish mumkin.
4. Nitrillarni mineral kislotalar yoki ishqorlarning suvdagi eritmalari bilan qo'shib qizdirilganda kislotalar hosil bo'ladi:



Kislotalar sanoatda parafin uglevodorodlarini yuqori haroratda katalizatorlar ishtirokida havo bilan oksidlab olinadi. Bunda kichik molekulyar massaga ega bo'lgan uglevodorodlar bug' fazada yuqori bosim ostida, katta molekulyar


massaga ega bo'lgan ($C_{16}H_{34}$ - $C_{30}H_{62}$) uglevodorodlar suyuq fazada $400-500^{\circ}C$ va $130-200$ atm bosim ostida oksidlanadi [10].

Karbon kislotalarni sanoatda olishning eng istiqbolli usuli ularni oksosintez yordamida olish hisoblanadi. Bu jarayon $300-400^{\circ}C$, $200-500$ atm bosim va nikel tetrakarbonli katalizatorligida olib boriladi. Oksosintez jarayoni ikki yo'nalishda sodir bo'ladi:




Karbon kislotalarning xossalari. Tuzilishida uchtagacha uglerod bo'lgan kislotalar rangsiz suyuqlik bo'lib, o'ziga xos o'tkir xidga ega; suv bilan istalgan nisbatda aralashadi. Tuzilishida to'rttadan to'qqiztagacha uglerod bo'lgan kislotalar moysimon suyuqlik bo'lib, yoqimsiz hidga ega, suvda yomon eriydi. Yuqori kislotalar qattiq moddalar bo'lib, suvda erimaydilar. Chumoli va sirka kislotalarining zichligi birdan katta, qolganlariniki esa birdan kichikdir. Tarkibida teng uglerod atomi saqlangan to'g'ri zanjir hosil qilib tuzilgan kislotalar yuqori haroratda, tarmoqlangan tuzilishga ega bo'lganlari esa nisbatan past haroratda qaynaydilar. Juft sonli uglerod atomi saqlovchi kislotalar yuqori haroratda, toq sonli uglerod atomi saqlovchi kislotalar esa past haroratda suyuqlanadilar. Masalan, kapril kislota $C_7H_{15}-COOH$ ning suyuqlanish harorati $15,2^{\circ}C$, enant- $C_6H_{13}-COOH$ va felargon kislota $C_8H_{17}-COOH$ niki esa $10,5^{\circ}C$ va $12,5^{\circ}C$ ga tengdir. Kislotalar tegishli spirtlarga qaraganda yuqori haroratda qaynaydilar. Buning asosiy sababi ular molekulalarining assotsiyalangan holatda bo'lishligi hisoblanadi.

Kimyoviy xossalari. Karboksil guruhida elektronlar uglerod atomidan kislorod atomi tomon kuchli siljigan:



Bu o'z navbatida, kislorod bilan vodorod o'rtasidagi bog'lanishni zaiflashuviga sabab bo'ladi. Shuning uchun karbon kislotalar vodorod ionlari hosil qilib dissotsiyanadilar. Karboksil guruhida uglerod bilan kislorod orasidagi bog'larni quyidagicha ifodalash qabul qilingan:




Bunda uglerod va kislorod atomlaridagi uchta r-elektronlar depollangan holatda bo'ladi.

Organik kislotalar orasida eng kuchlisi chumoli kislota hisoblanadi. Uning dissotsiyanish konstantasi $K=2,14 \cdot 10^{-4}$ ga teng. Karboksil guruhi bilan bog'langan radikal ortib borishi bilan kislotalarning dissotsiyanish konstantasi kamayib boradi. Agar karboksil guruhi bilan bog'langan qo'shni uglerod atomida elektroakseptor atom yoki guruhlar bo'lsa, bu kislotalarning dissotsiyanish konstantasini ortishiga sabab bo'ladi.


Karbon kislotalar quyidagi kimyoviy xossalarni namoyon qiladilar.

1. Karbon kislotalar metallar, metall oksidlari va gidroksidlari bilan o'zaro ta'sir etib, tuz hosil qiladilar:




Karbon kislotalarning tuzlarini o'yuvchi ishqorlar ishtirokida qizdirish yoki elektroliz qilish natijasida uglevodorodlar hosil bo'ladi.

2. Karbon kislotalarga fosforning galogenli birikmalari yoki tionil xlorid bilan ta'sir etilganda kislota galoid anhidridlari hosil bo'ladi.




Hosil bo'lgan kislota galogenangidridlarni quyidagicha nomlanishi qabul qilingan.





Kislota galogen anhidridlarining dastlabki vakillari o'tkir hidli suyuqliklardir. Galogenangidridlarining kimyoviy jarayonlarga kirishuvchanlik qobiliyati tegishli kislotalarnikiga qaraganda yuqori bo'lib, galogen turli funksional guruhlariga oson almashina oladi. Quyida galogen anhidridlar uchun xos bo'lgan ayrim jarayonlarga misollar keltiramiz.


a) galogenangidridlar gidrolizlanganda kislotalar hosil bo'ladi:




b) galoidangidridlar spirtlar yoki alkogolyatlar bilan o'zaro ta'sir etib, murakkab efirlarni hosil qiladilar:



g) galoidangidridlarga ammiak va uning hosilalari bilan ta'sir etilganda kislota amidlari hosil bo'ladi:





d) galoidangidridlar peroksidlar bilan ta'sir etib organik peroksidlarni hosil qiladilar:



Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, kislota galoidangidridlari organik birikmalarni juda ko'p sinflarini olishda dastlabki modda bo'lib xizmat qilar ekan. Yuqorida keltirilgan jarayonlarning barchasi nukleofil almashinish reaksiyasi orqali sodir bo'ladi.

3. Kislotalar suvni tortib oluvchi vositalar ishtirokida qizdirilganda yoki ularning tuzlariga galoid angidridlar bilan ta'sir etilganda kislota angidridlari hosil bo'ladi:




Birinchi usulni hamma kislotalar uchun qo'llab bo'lmaydi. Ikkinchi usul esa kislota angidridlarini olish uchun qulay usul hisoblanadi.


Kislota angidridllari o'tkir xidli suyuqliklar bo'lib, suvda yomon eriydi yoki umuman erimaydi. Tegishli kislotalarga nisbatan yuqori haroratda qaynaydi ular kimyoviy jihatdan aktiv birikmalar bo'lib, yaxshi atsillovchi (kislota qoldig'ini kirituvchi) vosita hisoblanadilar:

Kislota angidridlari uchun quyidagi kimyoviy reaksiyalar xosdir.


a) ularni suv bilan qo'shib qizdirilganda tegishli kislotalarni hosil qiladilar:




b) spirtlar bilan ular murakkab efir va kislota aralashmasini hosil qiladilar:




v) ammiak bilan kislota tuzini va uning amidini hosil qiladilar:



3. Kislota bug'ini ammiak bilan qo'shib suvni tortib oluvchi katalizatorlar ustidan o'tkazilganda kislota amidlari hosil bo'ladi:




Kislota amidlarini ya'na kislotalarning ammoniy tuzlarini quruq haydash orqali ham hosil qilish mumkin:




Chumoli kislota amididan tashqari, boshqa kislota amidlari kristall moddalar bo'lib, turli kimyoviy o'zgarishlarga uchray oladilar.


- a) ularni R_2O_5 bilan qo'shib qizdirilganda o'zlaridan suvni yo'qotib nitrillarga aylanadi:




- b) kislota amidlarini ishqor va kislotalarning suvdagi eritmaları bilan qo'shib qizdirilganda kislotalarni hosil qiladilar:




3. Karbon kislotalar spirtlar bilan efir hosil qilish (eterifikatsiya) reaksiyasiga kirisha oladilar. Bu reaksiya qaytar jarayon bo'lib, muvozanat kislota katalizatorligida o'ngga, ishqor ishtirokida esa chapga siljiydi.




Katalizator vazifasini vodorod ionlari bajaradi. Kislota karbonyl guruhi kislorodli protonni biriktirib, quyidagi oraliq birikmani hosil qiladi (I).



I birikma spirt molekulasini biriktirib olib, II kompleksni hosil qiladi:




II kompleks suvni ajratib murakkab efir kationi III ni hosil qiladi:




Tajribalar asosida murakkab efir hosil bo'lishida vodorod spirt molekulasidan, kislorod esa kislota molekulasidan ajralib chiqishi isbotlangan[12].


Alohida vakillari. Chumoli kislota $\text{H}-\text{COOH}$ – $100,8^\circ\text{C}$ da qaynaydigan o'tkir hidli suyuqlik. Texnikada ishqor va uglerod-(II)-oksiddan olinadi:




Chumoli kislota o'ziga xos xususiyatlarga ega u oson oksidlanadi:



Konsentrlangan sulfat kislota ishtirokida CO va H₂O ga parchalanadi.



Chumoli kislota ishqoriy metallar bilan hosil qilgan tuzi qizdirilganda vodorod ajralib chiqib, shavel kislota tuzlarini hosil qiladi:




Chumoli kislota organik sintezda keng ishlatiladi.

Sirka kislota 118,5⁰C da qaynaydigan, +16,6⁰da suyuqlanadigan o'tkir hidli suyuqlik. Sanoatda sirka aldegidini oksidlab yoki metil spirti va uglerod-(II)-oksiddan sintez qilinadi. Texnikada sirka kislota polimerlar olishda, oziq-ovqat sanoatida, sintetik tolalar ishlab chiqarishda keng qo'llanilgan.

To'yingan ikki asosli kislotalar.


To'yingan ikki asosli kislotalar HOOC(CH₂)_nCOOH yoki C_nH_{2n}(COOH)₂ umumiy formulalar bilan ifodalanadi. Ularning gamologik qatori shavel kislota boshlanib quyidagicha nomlanadi:




shavel kislota, etandiol kislota



molon kislota, prapandiol kislota



qahrabo kislota, butandiol




metal malon kislota

Olinish usullari. Ikki asosli kislotalarni bir asosli kislotalarni olish usullaridan foydalanib hosil qilish mumkin.


1. Ikki atomli spirtlarni okidlash orqali olish:



2. Dinitrillarni gidrolizlash orqali olish:




3. Oksikislotalarni oksidlash:



Fizik-kimyoviy xususiyatlari. Ikki asosli to'yingan karbon kislotalar suvda yaxshi eriydigan kristall moddalar bo'lib, ularni kislotalik doimiyligi tegishli bir asosli kislotalarnikiga qaraganda yuqori.


Ular bosqichli dissotsionaladilar:




Kimyoviy xossalari jihatidan ikki asosli kislotalar to'yingan bir asosli kislotalarning barcha xossalarini takrorlaydilar, ya'ni ular metall va metall oksidlari, gidrooksidlari bilan tuz hosil qiladilar, murakkab efir, kislota angidridi, galoid angidrid va boshqalar hosil qiladilar. Faqat ularda reaksiya bosqichli borib, o'rta va nordon tuz, mono- va diefir va boshqalarni hosil qilishlari mumkin.

Shuning bilan birga bir asosli kislotalardan farq qiladigan reaksiyalarga ham kirisha oladilar.

α - va β - dikarbon kislotalarni suyuqlanishi haroratidan yuqoriroqda qizdirilganda dekarboksillanish reaksiyasi sodir bo'ladi va natijada to'yingan bir asosli kislotalar hosil bo'ladi:




γ- va yuqori dikarbon kislotalar bu sharoitda siklik angidridlarni hosil qiladilar:




Ikki asosli kislotalar orasida malon kislota o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Undagi $-\text{CH}_2-$ (metilen) guruhidagi vodorod atomlari juda qo'zg'atuvchan bo'lib kislota xususiyatlarini namoyon qiladilar, ya'ni metallar bilan almashinish reaksiyasiga kirisha oladi.

Malon kislota ning dietilefiriga natriy metalli yoki natriy alkogolyat bilan ta'sir etilganda natriy malon efiri hosil bo'ladi.




Natriy malon efirida manfiy zaryad uglerod va kislorod atomlari o'rtasida taqsimlangani uchun bu efir o'ta barqaror bo'lib, juda oson hosil bo'ladi. Natriy malon efir bir va ko'p asosli kislotalar va ularning hosilalarini olishda dastlabki modda bo'lib xizmat qiladi. Bunga quyidagilar misol bo'lishi mumkin.

1. Bir asosli kislotalarni olish.




2. Ikki asosli kislotalarni hosil qilish.

Agar natriy malon efiriga galoid alkan o'rniga α -bromalmashgan kislota efirlari bilan ta'sir etilganda oxirgi mahsulot sifatida ikki asosli kislotalar hosil bo'ladi, masalan:



Kislota diamidlari qizdirilganda kislota imidlariga aylanadilar:



Analitik kimyoda, malon kislota yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, turli qimmatbaho birikmalarni olishda, qahrabo kislota qishloq xo'jaligida, adipin, sebotsin kislotalar esa sun'iy tolalar ishlab chiqarishda ishlatiladi[13].

1.3 Etil spirt

Qadimdan ma'lum bo'lgan etanol olish usullaridan biri – tarkibida uglevod bo'lgan (uzum, mevalar ishlab chiqarish) organik maxsulotlardan achitqi va bakteriya fermentlari ta'siri ostida spirtni achitish hisoblanadi. Kraxmal (oxak), kartoshka, guruch, makkajo'huri qayta ishlash bir- biriga o'xshash ko'rinadi. Shakar-qamish xom ashyosi va boshqalardan qayta ishlash yoqilg'i spirtni olishning manbasi hisoblanadi. Bu reaksiya juda murakkab bo'lib, uning sxemasini quyidagi tenglama yordamida ifodalash mumkin :



Achitish natijasida olingan eritma tarkibida 15% dan ko'p bo'lmagan etanol bor, chunki ortiqcha konsertrassiyalangan eritmalarda achitqilar yashovchan emas.

Bu yo'l bilan olingan etanol asosan distillyassiya yo'li bilan tozalashga va konsentrassiyaga muxtoj. Etanolni bu yo'l bilan olish uchun ko'p xollarda Biologik xom ashyodan spirt tayyorlash etil spirtini oziq-ovqat xom ashyosidan olishning zamonaviy sanoat texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Tarkibida kraxmal bo'lgan donni (asosan – arpa, bug'doy, kartoshka, makkajoxori , olma va shunga o'xshashlarni tayyorlash va maydalash.

2. Fermentasiya; bu bosqichda achitgan shakar kraxmalining fermentli bo'lib o'tadi

3. Alfa – amilazaning rekobinatlangan uskunalari bioinjinerlik yo'li bilan olingan glokamilaza, amilosubtilin shu maqsadlarda yo'llaniladi.

4. Achitish – shakarni achitqilar yordamida achitish tufayli achitqi tarkibi spirtning yig'ilishi sodir bo'ladi.

Achitish rektifikasiyasi. Kalonna qilib haydash orqali amalga oshiriladi. Achitqi ishlab chiqarishning chiqindi qoldiqlari bo'lib CO gazi efir-aldegid fraksiyasi, sivush spirti va sivush yog'i hisoblanadi.

Achitqi rektifikarsiyasi uskunasi olinayotgan spirt suvsiz emas, uning tarkibida 95,9 % etanol bor.


Uning tarkibidagi yod aralashmalarning miqdoriga qarab, uni quyidagi toifalarga bo'linadi.

Gidroliz ishlab chiqarish. Asosiy moddalari: Gidroliz spirti, gidroliz ishlab chiqarilishi.



Sanoat doirasida etil spirtini tarkibida selyuloza bo'lgan (yog'och, poxol) oldindan gidrolizlangan xom ashyodan oladilar. Bundan hosil bo'lgan pentoz va leksoz aralashmasini spirtli achitishga qo'yiladi. Janubiy Yevropa va Amerika bu texnologiya keng tarqalmagan, lekin SSSR ga (hozirgi Rasiyaga) gidroliz etanoli va achitqi gidroliz oziqasining rivojlangan sanoati mavjut.

Etilen gidratatsiyasi. Sanoatda birinchi uslub bilan bir qatorda etilen gidratatsiyasidan ham foydalaniladi.

Gidratatsiyani 2 xil yo'l bilan olib borish mumkin: to'g'ridan- to'g'ri gidratatsiya 300⁰ S daraja issiq, 7 Mpa bosim ostida, katalizator sifatida faollashtirilgan ko'mir va asbestga, silikagelga uchratilgan tartofosfor kislotasi ishlatiladi.



Efir kislota moyining oraliq bosqichi orqali gidratatsiya, uning keyinga bosqich gidronizi (80-90⁰S issiqlik, 3,5 Mpa bosim ostida):



Bu reaksiya dietil efirining tashkil topishi bilan murakkablashadi.

Etanolni tozalash. Etilenni gidratatsiyalash va achitish yo'li bilan olingan etanol o'zida omuxtaga ega bo'lgan suv-spirt aralashmasini aks ettiradi. Uning sanoatda ozuqa sifatida va dori sifatida qo'llanishi uchun tuzalash zarur.

Fraksion xaydash etanolni 95.6% ga yaqin konsentrassiya orqali olinishni taminlaydi bu ajralmas azeotrop aralashma 4.4% suv miqdoriga ega va 78.15 °C daraja qaynash harakatiga ega


Etanolni tarkiblarga ajratish orqali uni yengil uchuvchi organik moddalar kabi o'g'ir suyuqliklardan xam ozod qiladi[15].

Absolyut spirt --- toza spirt. Toza spirt mutlaqo 78.15⁰ C qaynaydi. Tarkibida benzol bo'lgan spirtni tarkiblarga ajratishni boshqa usullar bilan ham oladi. Masalan: spirtni suv bilan reaksiyaga kirishuvchi yoki suvni shimib oluvchi so'mdirilmagan oxak (CaO) yoki qizdirilgan mis kuporosi CuSO₄ moddalari bilan qayta ishlaydilar.




Физик xossalari. Etil spirti C_2H_6O o'ziga xos hidga ega bo'lgan gaz rangsiz suyuqlik suvdan yengil (slishtirma og'irligi 0.8) $78.3^{\circ}C$ darajada qaynaydi ko'plab organik va noorganik moddalarni yaxshi eritadi "Rektifikat" spirt 96% etil spirti 4% suvni tashkil qiladi. Tashqi ko'rinishi: odatiy xollarda rangsiz uchuvchi suyuqlik o'tkir xid va achchiq tamga ega. Etil spirti suvdan yengil. Boshqa organik moddalarni yaxshi erituvchi xisoblanadi. Doimiy uchrab turadigan xamda extiyot bo'lishi kerak, ko'p xollarda 95.57% li spirt bilan toza spirtni aralashtirib yuborishadi. Ularning xossalari deyarli bir xil, lekin kattaliklari 3-4 raqamdan boshlab farq qila boshlaydi

95.57% etanol 4.43% suv aralashmasi azeotrop xisoblanadi yani tarkiblarga ajratishda ajralmaydi. Spirt molrkulasining tuzilishi elementlar valentligiga asosan C_2H_6O 2 xil strukturaga ega



Etil glikol




Glitserin

Etil spirtning xossalari


Umumiy	
Sistematik nomenklatura	Etanol
An'anaviy nomlanishi	Etil spirti
Kimyoviy formulasi	C_2H_5OH
Rasional formulasi	CH_3CH_2OH
Fizik hossalari	
Agregat holati	suyuqlik
Molyar massa	46,069 g/mol
Zichligi	0,7893 g/sm ³
Sirt tarangligi	$22,39 \times 10^{-3}$ N/m 20 °C N/m
Termik hossalari	
<u>T.</u> Suyuq	-114,3 °C
<u>T. qayn.</u>	+78,4 °C
<u>T. alang.</u>	13 °C
<u>T.</u> Erk.alang	+363 °C
Portlovchanligi	3,28 — 18,95 %
Uchlamchi nuqta	-114,3 °C, Pa
Kritik nuqta	+241 °C
Mol issikl sig'imi	112,4Dj (mol K)
Hosil bo'lish entalpiyasi	-234,8 kDj/mol

Formulalarning qaysi biri haqiqatga yaqinroqligini aniqlash uchun tajribaga yuzlanamiz. Spirt quyilgan probirka natriy parchasini solamiz. Xuddi shu zahoti gaz ajralib chiqish boshlanadi. Bu gaz vodorod ekanligini aniqlash qiyin emas. Endi tajribani shunday o'tkazamizki, har bir spirt molekulasidan qancha vodorod atomi ajralib chiqayotganini aniqlash mumkun bo'ladi. Buning uchun natriyning mayda bo'lakchalari solingan kolbaga voronka orqali tomchilab spirt qo'shamiz. Masalan 0.1 gramm molekula (4.6 gram). Spirtidan ajralib chiqayotgan vodorod suvni ikki bo'g'inli shisha idishdan o'lchov silindirigacha surib chiqaradi. Silindr ichiga siqib chiqarilgan suv hajmi ajralib chiqayotgan vodorod xajmiga teng Tajriba uchun 0.1 gramm molekula spirt olinganligi uchun 1.12 litrga yaqin vodorod olishga erishildi. Demak gramm molekula spirtidan natriy 11.2 litr yani teng yarim gramm molekula boshqacha aytganda 1 gramm vodorod atomini siqib chiqaradi. Ko'rinib turibdiki bu vodorod atomi spirt molekulasida boshqa 5 ta vodorod atomiga nisbatan o'ziga xos holatda joylashgan. (1) formula bu asosga tushuncha bera olmaydi. Shunga ko'ra, barcha vodorod atomlari uglerod atomlari bilan bir xil bog'langan va bizga ma'lum bo'lishicha metallnatriy yordamida siqib chiqarilmaydi. (natriy uglevodorodlar aralashmasida - kerosinda saqlanadi). (2) formula aksincha, bitta atom o'zgacha holatda turganini ko'rsatib turibdi: u uglerod bilan kislorod atomi orqali bog'langan. Xulosa qilish mumkinki, aynan mana shu vodorod atomi kislorod atomi bilan mustahkam bog'langan; u harakatchan bo'lib, natriy yordamida siqib chiqariladi. Shundan qilib, etil spirtining formulasi:




Vodorod atomining yuqori harakatchanligiga qaramay, gidroksil guruxdagi boshqa vodorod atomlariga nisbatan, etil spirti elektrolit

hisoblanmaydi va suvli eritmada ionlarga ajramaydi. Etil spirti molekulari o'rtasidagi aloqalar kovalentli:



Spirt molekulasida OH gidroksil gurux uglevodorod radikallar bilan birlashganini ko'ratib o'tish uchun etil spirtining molekulyar formulasi quyidagicha yoziladi:



Farmokologik xususiyatlariga ko'ra etil spirti narkotik moddalar sirasiga kiradi. Etil spirti (alkagol) ko'roq markaziy nervsistemasi xujayralari ayniqsa miyya po'stlog'i xujayralari sezuvchan bo'lib u alkagol qo'zgo'luvchanlikni keltirib chiqarib, po'stloqdagi sezuvchanlik jarayonlariga almashuvchi to'rmizlanish jarayonlarining sustlashuviga tasir ko'rsatadi orqa miyya va cho'zinchoq miyya faoliyatini buzib nafas olish markazi ishini qiyinlashtiradi. Alkagolni ortiqcha istemol qilish organizmdagi xayotiy zarur bo'lgan asosiy funksiyalarning buzilishiga olib keladi. Konsentratsiya oshirilganda mikroblarga qarshi samarasi oshib boradi. Rezorotiv tasiri ko'proq markaziy nerv sistemasida seziladi. Bakterissid (bakteralarni qiruvchi) tasiriga ega bo'lib harorat ko'tarilganda xamda unga fenol, lizol qo'shilganda uning bu xususiyati kuchayib boradi. 70% li spirt ko'proq faollikka ega. Sporomid (mikroorganizmlar sporalarini qiruvchi) xossaga ega. Spirt bug'lari suyuqlikka nisbatan ancha yuqori faoliyatga ega.

To'qimalarni bo'lovchi va kuydiruvchi tasir ko'rsatadi. To'qimalarni bog'lovchi tasiri to'qimalardagi shamollash jarayonini to'xtatadi, qo'zgatuvchi xususiyati esa bo'g'im va mushaklarning qon bilan taminlanishini oshiradi. Spirt prostoglandinlar (biologik aktiv moddalar) sintezini og'irlashtiradi. Shuning uchun miometriy (bachadon mushak qavatining qisqarishi) motorikasini tormizlantiradi. Etanol (etil spirti) kimyo sanoatida suyultiruvchi sifatida ishlatilishi mumkin, masalan bo'yoq va koklarni suyultirishda, avtomobil yonilg'i boklaridagi namlikni siqib chiqaruvchi sifatida avtomobil oynoklarini yuvuvchi sifatida oynakni sifatli tozalovchi va yog'larni ketkazuvchi sifatida, optikada elektron platlar uchun shahar tashqarisidagi uylardagi isitish tizimi uchun issiqlik manbasi sifatida ichki yondirish dvigatellari uchun alternativ yoqilg'i ko'rinishida biokaminlar uchun yoqilg'i (bioetanol) parfyumeriya sanoatida duxi va adikanollar ishlab chiqarishda har xil moddalarga qo'shiluvchi va spirtovka sifatida spirtli ichimliklar ishlab chiqarishda asosiy konponent sifatida oziq-ovqat sanoatida tibbiyotda esa antiseptik va dori vositalariga qo'shiluvchi spirt asosida ekstrakt va nastoykalar tayyorlashda ishlatilishi mumkin. Etil spirti yana uni tibbiyotda sharof spirt deb xam ataladi, tiniq, rangsiz suyuqlik bo'lib o'ziga xos kuchli xid va tamga ega. U minus 114.6° C dan past haroratda muzlaydi, qaynash harorati esa 78.37°C. Tibbiyotda davolash maqsadlarida spirtning 96, 95, 90, 70, 40 va 33% li suyuqlikda ishlab chiqariladi. Xozirgi davrda etil spirtini ikki xil ko'rinishda: istemol (ichimlik) va texnik xolatida sotib olish mumkin. Birinchi turi sabzovat va don maxsulotlari; kartoshka, boshqali ekinlar, lavlagi, shakarni qayta ishlash yo'li bilan tayyorlanadi. Tarkibida kraxmal saqlaydigan xom ashyoni olish uchun kraxmalni fermentativ gidrolizdan o'tkaziladi (achitiladi). Shunday qilib achitqi olinadi va tindiriladi, zararli moddalar cho'kindilardan tozalanadi bular izomil, izobutil, uksus va boshqa oliy spirtlar. Agar etanol alkagolli ichimliklar ishlab chiqarish uchun harid qilinsa turli cho'kmalar ichimlikka yoqimsiz ta'm va xid berishi mumkin. Aynan shuning uchun xam, ular asosiy maxsulot olish jarayonida bartaraf qilinadi.

Tarkibi tozalanish darajasi yot komponentlar mavjudligi, shuningdek o'tkirlik darajasiga qarab quyidagi sortli spirlarni sotib olish mumkin. Alfa, lyuke, ekstra, bazis va birinchi sortligi mana shu barcha ichimlikka yaroqli 95-96% li turlar Uzoq Shimol rayonlarida sotish uchun ruxsat olgan, bu yerlarda ularni do'kon peshtaxtalarida erkin savdoda ko'rish mumkun. Toza istemol spirti Moskva va boshqa shaharlarda likor-aroq va sharob zavodlarida alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish uchun realizatsiya qilinadi. Texnik etil spirtini (denaturat) gidroliz va sintetik turlarga bo'linadi. Birinchi turi yog'ichni qayta ishlash sanoati chiqindilarini selyulozani gidroliz qilish yo'li bilan olinadi. Sintetik turi esa kimyo zavodlarida tayyorlanadi. Tarkib o'zida yuqori bosim ostida olingan texnik suv va etan gazini mujassam etgan. Shuni yodda saqlash kerakki, sintetik spirt suyultiruvchilar va kimyoviy preparatlar olish uchun ishlatiladi. Bu maxsulot inson uchun zaharli bo'lib nohush tam va hidga ega. Darhol farqlab olish uchun bunday suyuqlik binafsha ranga bo'yaladi. Etanol (etil spirti, nitilkarbinol sharob spirti yoki alkagol, bir og'iz so'z bilan aytganda "spirt") C_2H_5OH formulali bir atomli spirt, boshqacha aytganga CH_3-CH_2-OH bir atomli spirlarning gomologik qatorining vakili. Standart sharoitlarda uchuvchan, yonuvchan, ranhsiz tiniq suyuqlik. Alkagol ichimliklarining harakatlanishdagi depressant, psixofaol, inson markaziy nerv sistemasini ishdan chiqaruvchi komponentidir. Etil spirti shuningdek yonilg'i, suyultiruvchi spirtli termometrlarni to'ldiruvchi xamda dezinfeksiyalovchi (yoki uning komponenti) vosita bo'lib C_2H_5OH rangsiz tiniq va oziga xos xid va kuydiruvchan tamga ega va achitish jarayonining maxsulidir[16].

Tarkibida etil spirti saqlanishga qarab alkagolli ichimliklar yuqori alkagolli 96% gacha spirt bo'lgan (etil spirti) o'tkirligi 31-61 % gacha spirt mavjud (aroq, rom, konyak), o'rtacha alkagolli 9-30% li spirt mavjud (uzum sharbati, likyor, napitkalar) kuchsiz alkagolli 1.5-8% spirtli (pivo, kvas) ga bo'linadi.

Etil spirti har qanday xolatda suv bilan aralashadi va singuvchan bo'ladi. Istemol qilinadigan etil spirti $95 \pm 0.2\%$ o'tkirlikda ishlab chiqariladi.

Xidi va tami rektifiklangan etil spirtiga mos bo'lib don maxsulotlari va kartoshkadan olingani qolgan sifat ko'rsatkichlari bo'yicha xam yuqori tozalikdagi rektifikatlangan etil spirtiga mos bo'lishi kerak. Spirt toza shisha butilkalariga quyiladi. Shisha butilkalar sig'imi 0.5 va 0.25 litr. Spirtli butilkaga ishlab chiqaruvchi zavodning nomi, spirtning nomlanishi, hajmdagi o'tkirlik foizlarda, butilka sig'imi va harakatdagi standart nomeri ko'rsatilgan etiketka o'rnatilgan mamuna bo'yicha yopishtiriladi. Istemol spirtining yaroqlilik muddati chegaralanmagan.

Ichimlik spirti tiniq, rangsiz va o'ziga xos tam va xidga ega bo'lishi kerak. Mana shu ko'rsatkichlarga qo'shimcha tarzda spirtda fizikaviy kimyoviy tajribalar o'tkazilib, etil spirtining sig'im uchun ($95 \pm 0.2\%$) aldegidlarning umumiy konsentratsiyasi (4 ml/dm^3 ortiq bo'lmagan), efirning (30 mg/dm^3 dan yuqori bo'lmagan) erkin kislotalarning (15 mg/dm^3 dan yuqori bo'lmagan) miqdori aniqlanadi. Ichimlik fukein-oltingugurt kislotali metil spirtiga sinovdan o'tgan va furfurokga ega bo'lmasligi kerak. Istemol etil spirti faqat istemol xom ashyosidan olinadi. Spirt ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo bo'lib kartoshka, don maxsulotlari xizmat qiladi. Spirt ishlab chiqarish quyidagi bosqichlardan iborat.

Tayyorlovchi xom ashyo turli zararli cho'kmalardan tozalanadi, solod tayyorlash asosiysi – kraxmalli xom ashyoni qaynatish, kraxmalni shakarlash, shakarlangan moslani achitish, achitqini tindirish va xom spirt olish: yakunlovchi – rektifikassiyalash (etil spirtini tozalash uchun qaytadan tindirish.) tarkibida chokmalar mavjudligi va o'tkirligidan qattiy nazar rektifikassiya qilingan etil spirti quyidagi so'rtlarda ishlab chiqiladi: lyuks, ekstra, yuqori darajadagi tozalangan va 1 so'rtli rektifikassiyalangan etil spirti tiniq rangsiz va yot xidlar va tamsiz bo'ladi. Lyuks va ekstra sortli spirtlar faqat kondissiylangan dondan tayyorlanadi. Yuqori tozalikdagi va 1- so'rt spirt uchun esa har qanday tarkibida kraxmal bo'lgan istemol xomashyosi ishlatiladi. Etil spirti tarkibi (mustahkamligi) xajmi prosentlarida ifodalanadi.

Xajm foizlari deyilganda 20° C li aroq – spirt suyuqlikning 100 ml da gi spirt millilitrlari miqdori tushuniladi. Lyuks spirtning mustahkamligi - 96.3%, ekstra – 96.5, yuqori tozalikdagi – 96.2, 1 sort esa – 96% xajmidadir. Etil spirti – rangsiz tez yoyiladigan suyuqlik, suvsiz spirtning og'irligi 20° C da – 0; 78.927; 760mm simob ustuniga, qaynash harorati 78.3° C; muzlashi esa -117° C. etil spirti rektifikatsiyalangan “lyiks” va “ekstra” spirtlari turli xil don ekinlari, kortoshka bo/tqasidsn tayyorlanadi. “lyiks” spirti ishlab chiqarishda kortoshkani aralashmadagi miqdori 35% dan, “ekstra” spirtida esa 60%dan oshmasligi kerak. Etanol Konservant RF da ekstraksiyalovchi va texnologik suyultiruvchi sifatida istemol ishlab chiqarishida TIGA muvohiq holda maksimal qoldiq miqdori TI ga muvofiq (5, 3, 42 Can PIN 2, 3, 2 1293 – 03) ruxsat berilgan. Etii spirti o'zidan kelib chiqqan xolda rangsiz suyuqlik bo'lib, har qanday nisbatta xam suv bilan aralasha veradi. Istemol spirti faqat tarkibida shakar bo'lgan suyuqliklarni achitish yo'li bilan olinadi. RF da va ko'pgina mamlakatlarda istemol qo'shimchasi bo'lib xisoblanmaydi. U ko'pgina oziq ovqat maxsulotlarining asosiy qismida mavjud bo'lib uning konservant sifatida ishlatilish miqdori cheklanmagan. Konservatsiyalovchi harakati bir muncha foizlarda boshlanib, oziq ovqat maxsulotidagi suvning faolligi susayishi bilan bog'liq. Arablar spirtidan mevalarni saqlashda bundan 1000 yil avval foydalanishgan xozirgi davda etanol saonotoda qo'llashda nonvoychilik va vino ishlab chiqarishda ishlatilmoqda. Uni sharbatlarga qo'shib keyinchalik sharob ishlab chiqarishda sharobni maxsus navlariga qo'shilmoqda. Uy sharoitida etanol avvalgidek mevalarni konservalashda rom va shakarda ishlatilmoqda [17].

Normativ xujjatlar

GOST P 52473 – 2005 istemol xomashyosidan olingan etil spirti. Qabul qilish qoidalari va analiz usullari

GOST P 52522 – 2006. Istemol xom ashyosidan olingan, aroq va liker-arop maxsulotlaridan olingan etil spirti. Organoleptik usullari

GOST P 52945-2008 Rektifikatsiyalangan etil spirti. Spektral – lyuminetsent identifikatsiya usuli

GOST 18300-87 Rektifikatsiyalangan texnik etil spirti. Texnik shartlar

GOST P 52193-2003. Etil spirti- istemol xom ashyosidan tayyorlangan xom ashyo. Texnik shartlar

GOST P 51762- 2001 Istemol xomashyosidan olingan aroq va etil spirti. Uchuvchan kislotalar va furfurolni mavjudligini aniqlashlashning gazoxromotografik usuli

GOST P 51786 – 2001. Istemol xomashyosidan olingan aroq va etil spirti xaqiqiylikini aniqlashning gazoxromotografik usuli

GOST P 51698 – 2000. Istemol xomashyosidan olingan aroq va etil spirti. Zaharli mikrocho'kmalar mavjudligini aniqlovchi gazoxramatografik ekspress usuli $\text{H}_3\text{C}-\text{CH}_2-\text{OH}$ sinonimlar, sharob metilkarbinol etanol spirti [18].

Tam xid singuvchanlik, tam kuydiruvchan. Qo'shimcha tarif xidning xavodagi sezilish hususiyati ($\text{mg/h}=0.25$) Tozalash usuli yoki aralashmadan ajratib olish. Parmfyumeriya va kosmetika turli moddalarning asosiy suyultiruvchisi va duxi adikalon oerazol va shunga o'xshashlarning asosiy komponentidir. Turli ko'rinishdagi vositalar tarkibiga kiradi, bunga tish pastalari, shampunlar va shunga o'xshashlar. Oziq ovqat saonotida suv qatorida spirli ichimliklar (aroq, viski va boshqalar) ning asosiy komponentidir. Shuningdek achitish yo'li bilan olinadigan, lekin alkagol sirasiga kirmaydigan (kefir, kvas, qimiz, alkakolsiz piva va boshqalar) ichimliklar tarkibida oz miqdorda bo'ladi. Yangi kefirdagi etanol miqdori juda kam (0.12%), lekin uzoq turib qolgan ayniqsa issiq joydagsida 1%ga yetish mumkin.

Qimizda 1-3% etanol bor (o'tkirida 4.5% gacha), kvasda 0.6 dan 2.2% bo'ladi.


Oziq- ovqat aromatizatorlarini suyultiruvchi non, bolka maxsulotlari uchun konservant sifatida xamda konditer saonatida foydalaniladi. Oziqaviy qo'imcha E 1510 sifatida qayd qilingan. Etanolning dunyo miqyosida ishlab chiqarilishi. Mamlakatlar bo'yicha etanol ishlab chiqarish mln litrni tashkil etadi. Etanolda avtomobil yonilg'isi sifatida qo'llanilishi turli davlatlarda etanolda transport bo'yicha foydalanish davlat dasturlari ishlab turibdi. AQSH prizdenti Bush tomonidan 2005 yil avgust oyida tasdiqlangan "energetik bill"da 2012 yilda don maxsulotlaridan 30 milliard litr etanol selliyuzoadan (makkajoxori poyasi, somon) 3,8 milliard litr etanol olish ko'zda tutilgan. Etanol ishlab chiqaruvchi 40 mln gaplon quvvatdagi zavod qurilishi iqtisodiyotga (AQSH misolida) qurilish rayonida esa 142 mln don investitsiya kiritilishini zavodga 41 ish o'rnini qo'shilishi 694 ish o'rni butun iqtisodiyot bo'ylab beradi.

Yerlarda maxalliy narx don maxsulotlari uchun 5-10 sent qo'shiladi, uy xo'jaliklarining daromadi yiliga 19.6 mln don oshadi. Soliq to'lovlari 1.2 mln donga o'sadi. Yiliga investitsiyalar daromadi 13.3 % yillik oshadi. 2006 yilda AQSH da 2.15 mlrd bishel makkajoxori etanolga qayta ishlanib, makkajoxori yetkazib berishning yillik 20.5% ni tashkil etadi. Etanol chorvachilik va eksportdan so'ng uchinchi o'rinda makkajo'xori istemolchisi bo'ldi. AQSH da sorgo xosilining 15 % I etanolga qayta ishlanadi 2006 yilda etanol sanoati 12 mln tonna ozuqa ishlab chiqardi. 75 – 80% dan KRSga, 18 – 20% chochqachilikka , 3 – 5% qushlarga yemish sifatida ishlatildi. AQSH da 2005 yilda benzinning 30% I etanol bilan aralashma xolida sotiladi. 2006 yilda etanol 19 shitatda 110 ta zavodda ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish rekord darajada 18.52 mlrd litrga yetadi, bu esa 2005 yilga qaraganda 25% ga ko'p degani 2000 yildan boshlab etanol ishlab chiqarish 300% ga oshdi 2006 yil davomida 15 ta yangi zavod qurildi. Yangi zavodlarning summaviy quvvati 3990 mlrd litrga teng bo'ldi. 2007 yilning yanvarida 73 zavod qurilishning turli bosqichlarida bo'lsa, 8 zavod esa o'z quvvatini oshirmoqda. 2009 yilga kelib AQSH da etanol ishlab chiqarish 44 mlrd ga yetdi. 2005 yida etanol Brazilya yonilg'I balansida 20% ni tashkil qildi. Etanol

benzinga nisbatan suv bilan yaxshiroq birikadi. Benzin va e tanol aralashmasining qatlamlanish muommosi xozirgi kungacha xal etilmagan. Etanol bilan benzin aralashmasi E harfi bilan belgilanadi. E harfining raqam bilan birga turishi etanolning foizli tarkibini bildiradi. E85 – aralashmasining 85% etanol va 15% benzin ekanini bildiradi. 20% gacha etanol bo'lgan aralashmalar har qanday avtomobilda qo'llanishi mumkin. Biroq ayrim avtomobillar ishlab chiqaruvchilar 10% ko'proq etanol bo'lgan aralashma ishlatiladigan avtomobillar kofolatini chegaralashadi. 20% dan ko'proq etanol bo'lgan aralashmalar ko'pgina xolatlarda avtomobil o't oldirish tizimiga o'zgartirishlar kiritishini talab qiladi. Ammo ishlab chiquvchilar benzinda xam E85 da xam ishlay veradigan avtomobillar ishlab chiqarishmoqdalar. Brazilyada bunday avtomobillar “gibridlar” deb ataladi. Zamonaviy avtomobillarning ko'pchiligi dastlab bunday yoqilg'I ishlatilishini maqulladi, ayrim lari esa talabga ko'ra foydalandi. 2005 yilda AQSH da 5 mlndan ko'proq avtomobillar Flex – Fuel dvigatellari bilan ekspruattassiya qilindi. Umumiy avtopark 230 mln avtomobilni tashkil qiladi. AQSH da xammasi bo'lib 170 000 yoqilg'I quyish stansiyalari avtamobil yoqilgisi sotadi. Brazilyada esa 29000 yoqilg'I quyish stansiyalari etanol sotadi. Iqtisodiy tejamkorligi Baziliya etanolining tannorxi (0.19 dollir atrofida 2006 yilda AQSH da bir litri uchun undan foydalanishni iqtisodiy tomandan foydali qiladi [19].

Etanolni olish. Etanol olishning 2 xil asosiy usuli mavjud mikro biologik (spirtli achish) va sintetik (etilni gidratasiyasi). Spirtni dunyo miqyosida ishlab chiqarish yiliga millionlab tonnalar bilan o'lchanadi. Spirt olishning eng keng tarqalgan usuli shakar mavjud moddalarni achitqilar yordamida achitish. Mana shu tuban o'simlik organizmlari (zamburug'lar)da asosiy moddalar fermentlar ishlab chiqariladi ular esa achitish reaksiyasining biologik katalizatorlari bo'lib xizmat qiladi. Spirt ishlab chiqarishdagi ishlatiladigan materiallar sifatida aynigan meva urug'lari yoki kartoshka tuganaklari kabi kraxmalga boy xom ashyo tanlanadi. Diastoz fermenti bo'lgan kraxmal dastlab solod yordamida shakarga aylantirilib, keyin spirtga achitiladi. Olimlar ko'p bora spirt olishda ishlatiladigan ozuqaviy

xomashyoni arzonroq noozuqaviy xom ashyoga almashtirish yo'lida ko'p izlandilar. Bu izlanishlar o'z samarasini berdi. Xozirda yog'och chiqindilaridan sanoat yo'li bilan spirt olish rivojlangan. Yog'och xom kraxmal singari shakarga aylanishi mumkin, shakardan esa spirt olinadi. Keyingi vaqda neftni krekinglashda ko'p etil xosil bo'layotganligi uchun katalizatorlar ishtirokida etilenni gidratassiyalash yo'li spirt olinmoqda, etil spirti lok bo'yoq formaseftika sanoatida fetomateriallar radioelektronika tovarlari ishlab chiqarishda xamda maishiy kimyoda keng ko'lamda ishlatilmoqda. Dietil efiri, xloroform, tetraetilqo'rg'oshini, asetoaldegid, uksus kislotasi, etilasetat, etilamin, etilakrilat, etilsilikat ishlab chiqarishda xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Ozuqaviy xom ashyodan olingan etil spirti toza etilen olish uchun ishlatiladi. Etil spirti antifiriz komponenti, reaktiv divigatellar uchun yoqilg'I sanoatida qator mamlakatlarda avtomobil yoqilg'I komponenti; oktan sonini oshiradi, benzin sarfini qisqartiradi. Xom ashyo bazasining qandayligidan qattiy nazar etil spirtining avtomobil yoqilg'isidagi ulishi AQSH da 10% dan tortib Brazilyada benzinni butunlay etanolga almashtirishgacha boradi. Texnik maqsadlar uchun tez – tez denaturat spirti ishlatiladi. Tibbiyotda etil spirti dezinfeksiyalovchi tashqi to'qimalarni kengaytiruvchi vosita, oqsil kougulyanti xamda kuymilarni davolovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Etil spirtining solmoqli qismi spirtli ichimliklar tayyorlash uchun ishlatiladi. Etil spirti favqulotda singuvchan bo'lib, 70% dan oshiq konsentratsiyaga ega bo'lganda terini va shilliq qavatni kuydiradi, istemol qilinganda miyya tormizlanish markazlarini ezib, mastlik chaqiradi, ko'p martalab istemol qilinsa alkogolizimga sabab bo'ladi. Tez alanga oladi 13°C da 404°C da o'z – o'zidan alanga oladi portlash chegaralari, haroratligi 11 – 41°C konsentratsiyaviyligi 3.6 – 19% (sig'imi bo'yicha).



1-rasm. Etil spirtidan vodorodni miqdoriy jihatdan olish

4-jadval

Eng yirik etil spirti ishlab chiqaruvchilar. (mln, litr)

Mamlakat	2008	2009	2010	2012	2013
AQSH	13 362	16 117	19 946	24564,71	34776 ^[3]
Braziliya	15 078	15 978	16 977	18972,58	24464,9
Yevro ittifoq	-	-	-	2155,73	2773
Xitoy	3 643	3 795	3 845	1837,08	1897,18
Hindiston	1 746	1 697	1 897	199,58	249,48
Fransiya	827	907	948	-	-
Germaniya	268	430	764	-	-
Rossiya	748	748	649	-	-
Jan Afrika	415	389	387	-	-
Buyuk Biritaniya	400	351	279	-	-
Ispaniya	298	298	463	-	-
Tailand	279	298	352	299,37	339,4
Kolumbiya	-	-	279	283,12	299,37
Dunyo Bo'yicha	40 710	45 927	50 989	49524,42	65527,05

Birinchi marta etil spirti Italiyada XI – XII asrlarda achitqi maxsulotlaridan olinib boshlagan. Absalyutlangan etil spirti T.E.Lovii (1796) tomonidan ishqor ustida suvli eritma xaydash yo'li bilan olindi. 1855 yilda M.Bertlo etilenni etil oltingugurt kislotasi orqali sintez qilib etil spirtini oladi. Suniy spirti ishlab chiqarish 1930 yilda AQSH da boshlandi. Etilenni gidratasiyasi reaksiyasi (oltin gugurt kislotasi ishtirokida) A. M. Butlerov va V. Geryain (1873) tomonidan o'rganilib o'shandayoq uning sanoatdagi axamiyati bashorot qilingan edi [20].

1.4. Etilasetat.

(Sirka kislotasining etil efiri) GOST 8981-78

Etilasetat- rangsiz uchuvchi suyuqlik bo'lib, yoqimli meva hidiga ega. Etanol, dietil efir, benzol, xloroform, taluol va boshqa qator organik eritmalarida eriydi. Suvda yomon eriydi. (12% massagacha) yaxshi yonadi. Murakkab efirlar kabi barcha xususiyatlarga ega, mo'tadil qutb erituvchi sanaladi.

Selyuloza efirlarini, qatron yog'i loklarini, yog'larni, mumni yaxshi eritadi. Zichligi- 0,902 g/sm³. Erish harorati- 83°C, qaynash harorati- 77°C.

Etilasetatni sanoat usuli bilan etil spirti, sirka va oltingugurt kislotalari ralashmametodi bilan oladilar, shuningdek, etil spirtini keten bilan qayta ishlash usuli bilan, yoki Tishchenko reaksiyasi bo'yicha asetaldegidni 0-5°C harorat ostida alyumin alkogolyatining katalitik miqdori ishtirokidagi reaksiyasi.

Kimyoviy formulasi: C₄H₈O₂ sertifikat. Etilasetatning qo'llanilishi nitro va etilsellulozaning faol erituvchisi bo'lib erituvchi sifatida lok bo'yoq materiallari va yozuv mashinalari uchun siyoq ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Shuningdek nitroliftal, perxlorvinil, etoksid emallarni turli xil surkash uchun moylarni, mum, poliefir loklar, bo'yoqlar, kremniorganik loklar va emallarni erituvchilar sirasiga kiradi. Bu maqsadlarda ishlab chiqarilgan etilasetatning 30% gachasi sarflanadi. Erituvchi sifatida; suvli eritmali organik maxsulotlar uchun ekstraktlar qiluvchi vosita sifatida; past eruvchanligi sababli oziq-ovqat

sanoatida ham, masalan, kofedan kofeinni ajratib chiqarishda; portlovchi moddalarni tayyorlashda kuchaytiruvchi vosita sifatida; likyor, konditer maxsulotlari va yaxna ichimliklar tarkibiga qo'shiladigan (E1504 ozuqaviy qo'shimcha) meva esseptsiyasi komponenti sifatida ishlatiladi.

5-jadval

Etilasetatning fizik- kimyoviy tavsifi. GOST 8981-78.

Ko'satkich nomi	Marka va nav uchun me'yorlar		
	A marka		B marka
	Oliy nav	Birinchi nav	
Tashqi ko'rinishi	Mehanik aralashmalarsiz shaffof suyuqlik		
Platina-kobalt shkalasi bo'yisha rang ko'p emas	5	10	10
Zichligi 20° C, g/sm³	0,898-0,900	0,897-0,900	0,890-0,900
Etil atsetatning massa ulishi, %	Kam emas 99,0	Kam emas 98,0	91,0±1
Sirka kislotaga xisoblaganda kislotalarni massa ulushi, %, ko'p emas	0,004	0,008	0,010
Cho'kmaning massa ulushi %	0,001	0,003	0,007
101,3 kPa bosimda haydalish chegarasi: 95% (hajm bo'yicha) mahsulot harorat chegarasida, ° C	75-78	74-79	70-80
Suvning massa ulishi %	0,1	0,2	1,0
Sirka aldegidga xisoblaganda aldegid massa ulushi, %, ko'p emas	0,05	Me'yorlashmagan	-
Nisbatan eruvchanligi (etil efiri)	2-3	2-3	2-3

Xavsizlik talablari. Texnik etilasetat inson organizimiga ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha ham hafli moddalar sifatiga kiradi. (xavning 4-bosqichi). Etilasetat bug'i ko'z shilliq pardalarini va nafas yo'llarini yallig'lantiradi. Terining tekkan joylarida dermatit va ekzemalar paydo bo'ladi. Ish hududi havosida PDK 200mr/mc3.

Texnik etilasetat oson anangalanuvchi suyuqlak bo'lib, havo bilan aralashganda GOST 12.1.011 bo'yicha T₂ guruxiga mansub PA toifali portilovchi aralashmani tashkil etadi.

Qadoqlash, transportirovka va saqlash. Texnik etilasetatni po'latdan yasalgan rux bilan ishlov berilgan bojkalarga, alyumin bojkalarga temir yo'l aftomabil sisternalarga quyadilar.

Transportirovka temir yo'l va aftomabil yopiq transportlarida, temir yo'l aftomabil sisternalarida aynan anashu transiportlar uchun amaldagi harakat havsizligi qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Texnik etil asetat omborxonalarda yoki anangalanuvchi moddalarni saqlash qoidalariga rioya qilgan holda maxsus metall idishlarda saqlanadi. Kafolatlangan saqlash muddati ishlab chiqarilgan kundan boshlab 6 oy.

Murakkab efirlar, aldegidlar, ketonlar va spirtlarni metallorganik birikmalar yordamida olish uchun ishlatilinadi. Shuningdek qayta tiklash yordamida birlamchi spirtlarni olishda ishlatilinadi. Spirtli eritmada natriy yoki litiy atomidan foydalaniladi.

Sirka etil efiri yoki etil asetat sirka izopropil efiri yoki izomil asetat texnikada eritish yoki boshqa maqsadlarida qo'llaniladi. Etil asetat etirifikatsiya reaksiyalaridan tashqari sirka aldegididan B.E.Tishchenko reaksiyasi bo'yicha ham olinadi. Bazi murakkab efirlar tabiiy efir yog'larini o'rinlashtituvchi suniy yo'l bilan ham olinadi. Masalan: suniy meva essensiyalari nok essensiyasi- izomil asetat, ananas essensiyasi etil n-butilat, olma assensiyasi izomilizovaleryat.

Murakkab efirlar nomlarini tuzlar nomiga moslab tuzish mumkin. Sirka kislotasi tuzini asetat deb sirka etil efirini etil asetat, sirka amil efirini amil asetat deb nomlanadi.

Suv va spirt xlorli eritmasi bilan qattiq aralashtirish natijasida 1 daqiqa davomida xlorli kalsiy eritma xajmi sezilarli ortmasligi kerak. Agar efirni suv bilan aralashtirilganda efir erituvchiga aylanishi natijasida suvning xajmi 2-2.5 ml ga ortadi biroq efir suvni parchalamaydi.

Suv miqdorining ortib borishi normasini dorivor etilasetatning 1ml benzoldagi parchalanishi natijasida xosil bo'ladigan cho'kma bilan 10 ml benzoldagi cho'kmasiz parchalanishi kerak bo'lgan yo'l bilan aniqlanadi.

Umuman tarkibida suv bo'lmagan efir parafin moyida xam cho'kmasiz parchalanadi.


Murakkab efirlar nomlanishi, shuningdek maskur kislotani tuzlari nomlari bilan ularni o'rnini bosuvchi metallarni radikallari nomi bilan o'rinlashtirib atash mumkin, masalan: Metil formiat, etil asetat, butilbenzoat.

Malum bir kislota tarkibidagi vodarodni o'rinlashtiruvchi alkil yoki aril gurihi nomlari ana shu kislota anionlarini nomlaridan oldin qo'yiladi. Shuningdek nomi xam qo'llaniladi – sirka etil efiri[20].

Etil assetatning fizik xossalari. Etil asetat $\text{CH}_3\text{C}(\text{O})\text{OC}_2\text{H}_5$ sirka kislotasini etil efiri – rangsiz, tiniq, xushboy xidli yonuvchi suyuqlik. Benzol, toluol, xloroform, dietil efiri, etanol va boshqa qator organik eritmalar bilan har qanday xolatta reksiyaga kirisha oladi (12% gacha bo'lgan massada) suvda parchalanadi. O'z navbatida etil atsetat 9.7% massa suvda eriydi. Qaynash temperaturasi 70.4°S 8.2 % suv massasi etil spirti (71.8°S va 30.8%) bilan, metanol bilan (62.25°S va 44%) izopropil spirti bilan (75.3°S va 21%) siklogeksan bilan (72.8°S va 54%) IV xlorli uglerod bilan (74.4° va 57%)

Etilatsetat murakkab sirka kislotasi va etil spirti efiri va uning kimyoviy xossalari barcha murakkab efirlarga xos.

Ishqoriy muxitda etanol va sirka kislotasigacha oson parchalanadi. Normal muxitda etirifikatsiya bo'lishi mumkin. Tenglik o'rindosh spirt ortiqchasi ishtirokida teng huquqli aralashish orqali kelib chiqadi:




Etil atsetat nisbatan past yonuvchanlikka ega. Uning bug'I ko'z shilliq pardalarini va nafas yo'llarini qichishtiradi, teriga tasir etganda egzema va dermatit paydo bo'lishi mumkin.

Olinishi. Sanotda etil atsetat olinishining bir necha asosiy usullari qo'llaniladi: Atsetaldegidan Tishchenko reaksiyasi bo'yicha jarayon alyumin alkogolyatning katalitik miqdori ishtirokida 0-5°C harorat ostida o'tkaziladi, Atsetaldegid konversiyasining yuqori darajasi (98% gacha) va xosil bo'lish samarasi darajasi (97 – 98%) bilan ifodalanadi;




Sirka kislotasini etil spirti bilan katalizator (oltingugurt kislotasi yoki ion almashinuvchu qatron) ishtirokida 110-115° C harorat ostida etirifikatsiyasi. Sirka kislotasi bilan spirtning 1: 1.1 jaroyondagi moslashuvi sirka kislotasining narxi etanoldan bir muncha yuqori bo'lganligi sababli kislota konversiyasi maksimali bo'yicha qo'shiladi. Konversiya darajasi 95%



Sirka kislotasini ishlab chiqarish jarayonida n-butan havo bilan oksidlanishi.

Etil atsetat bu jarayonda qo'shimcha mahsulot hisoblanadi sirka kislotasini etilen bilan alkillash 150°C harorat 7.7 Mpa bosim ostida oltingugurt kislotasi yoki qattiq kislota katalizatori va sirka kislotasining nisbatan munsabati.



Qo'llanilishi.

-
- Lok bo'yoq materiallar va yozuv mashinalari uchun siyox ishlab chiqarishda erituvchi.
- Bu maqsadlar uchun ishlab chiqarilgan etil atsetatning 30% gachasi ishlatiladi;
- Yelim turlarini tayyorlashda erituvchi;
- Turli xil maxsulotlarini qadoqlashda trafret usulida yozuvlar va rasmlar kiritish uchun siyox tayyorlashda erituvchi;
- (metak sazol, rifam pitsin va boshqa) dorivor vositalarni ishlab chiqarishda tasirga kirituvchi va reagent;
- Alyumin folga va yupqa alyumin varaqlarni ishlab chiqarishda yoqsizlantiruvchi vosita;
- Elektronika sanoatida tozalovchi va yoqsizlantiruvchi selyuloza efirlarini eritishda;
- Spirt bilan aralashmada suniy charim ishlab chiqarishda erituvchi;
- Turli organik moddalarni suvli eritmadan ajratib olish uchun vosita;
- Portlovchi moddalar tayyorlashda jilatinlashtiruvchi vosita;
- Meva essentsiyasi komponenti sifatida;
- Yonuvchanligi kam bo'lganligi sababli oziq ovqat sanoatida masalan kafedan kofeinni ajrtib olish uchun ishlatiladi[21].

1.5. Karbonat angidrid

Karbonat angidridning fizikaviy xossalari. (CO_2 uglerod dioksidi) kimyoviy formulasi CO_2 va molekulyar massasi 44 bo'lgan va turli xil fazali xolatda - gazsimon, suyuq, qattiq va o'ta murakkab. Gazsimon xolatdagi CO_2 umumiy qo'llaniladi nomi "karbonat angidrid gazi" nomi bilan ataladi. Atmosfera bosimda $+20^\circ\text{C}$ da va 1.839 kg/m^3 (xavodan 1.52 marta og'irroq) og'irroq zichlikda bu rangsiz va xidsiz gaz suvda yaxshi eriyda (suvning 1 sig'imida 0.88 sig'im) va unda o'zaro birikib ko'mir kislotasi hosil qiladi. Atmosfera tarkibida o'rtacha 0.035% sig'imi xajmiga kiradi. Qattiq muzlatilganda kengayishi hisobiga (detandirlanish) CO_2 desublimatsiyalanish xususiyatiga ega birato'la suyuq fazadan qattiq xolatga o'tadi. Qisilgan karbonat angidrid gazi rangsiz, tiniq, shaffof, yengil harakatlanadigan, tashqi ko'rinishidan spirt yoki efirni eslatuvchi suyuqlikdir. Suyuqlikning zichligi 0°C da 0.947 g/cm^3 ga teng 20°C harakatda 0.86 g/cm^3 (0.86 g/cm^3) bosimda qisilgan gaz po'lat balonlarda saqlanadi. Balondan erkin xolatda sizib chiqqanda ko'p miqdorda iliq xavoni simib bug'lanib ketadi. Harakat minus 78.5°C da suyuqlikning malum qismi quruq muzga aylanib qoladi. Quruq muz qattiqligi bo'yicha muzga yaqin bo'lib oqish rangda bo'ladi. Quruq muz qattiqligi suyuqlikka nisbatan sekinroq bug'lanadi, bunda u bevosita gazsimon xolatga o'tadi. -78.9°C harakatda va 1 kg/m^3 (9.8 MN/m^2) bosimda quruq muzning sublimatsiya iliqqligi 136.89 kkal/kg (573.57 kJ/kg) ni tashkil qiladi. Uglerodning gazsimon dioksidi avvallari ko'p xolatlarda stansionargazgorderlarda saqlanar edi. Xozirgi davrda bunday usul qo'llanilmaydi; ko'mir kislotasi gazi joyning o'zida suyuq karbonat angidrid gazifikatorda bug'lash yo'li bilan olinadi. Keyin esa gazni xoxlagan gaz quvurlariga 2-6 atmosferada xaydash mumkin. CO_2 ning suyuq xolati karbonat angidrid degan texnik nom bilan ataladi. Bu xidsiz rangsiz 771 kg/m^3 o'rtacha zichlikdagi suyuqlik faqat 5.9 MPa bosim C (past haroratli ko'mir kislotasi) yoki 7383 kPa (73.83 MPa) (yuqori bosimli ko'mir kislotasi) sifatida mavjuddir. Yuqori karbonat angidrid gazini kondensatsiya bosimigacha qisilgan xolatda bir vaqtning o'zida suv bilan sovutilgan xolda olish mumkin.

